



“ILIADA” O‘ZBEK TILIDA: QAHRAMONLAR VA SO‘Z SAN‘ATINING YANGI KO‘ZGUSI”

Yusupov N.O.

SamDChTI o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada Homerning “Iliada” dostoni o‘zbek tiliga tarjimasining lisoniy kognitiv tahlili uchun misollar keltirilgan. Doston qahramonlari uchun berilgan epitetlarning belgilari va tarkibiy lingvistik izohlari berilgan.

Kalit so‘zlar: “Iliada” tarjimasi, Olimp xudolari, murakkab so‘zlar, ijodiy laboratoriya, epitetlar, sifatlovlar, Zevs, Achilles, Feb, Agamemnon, Odissey, Hera, Afina, Hektor, Nestor, prefiks, postfiks, suffiks, infiks.

Annotation: This article provides examples of linguistic cognitive analysis of the translation of Homer's Iliad into Uzbek. The heroes of the epic were given comments on epithets and structural and linguistic explanations.

Keywords: translation of the Iliad, gods of Olympus, complex words, creative laboratory, epithets, adjectives, Zeus, Achilles, Phoebus, Agamemnon, Odysseus, Hera, Athena, Hector, Nestor, prefix, postfix, suffix, infix.

Аннотация: В статье приведены примеры лингвокогнитивного анализа перевода «Илиады» Гомера на узбекский язык. Героям эпоса даны комментарии к эпитетам и структурно-лингвистические пояснения.

Ключевые слова: перевод «Илиады», боги Олимпа, сложные слова, творческая лаборатория, эпитеты, прилагательные, Зевс, Ахилл, Феб, Агамемнон, Одиссей, Гера, Афина, Гектор, Нестор, префикс, постфикс, суффикс, инфикс.

Istiqlol O‘zbek xalqining taqdiri, kelajagi uchun, farzandlarining baxti iqboli uchun mislsiz imkoniyatlar yaratib berdi. Xuddi shunday tarzda mavjud barcha sohalar qatori madaniyat, adabiyot, adabiyot nazariyasi, tarjimashunoslik uchun ham istiqbol eshiklarini keng qilib ochdi. Dunyodagi malum xalqlar adabiyotida muhtasham va umriboqiy asarlarning borligi hech shak-shubhasiz butun insoniyatning ham boyligidir. Chunki mukammal va to‘liq darajadagi, katta masuliyat asosida qilingan badiiy tarjimalar bunday asarlarni boshqa xalqlarning ham chinakam manaviy, marifiy boyligiga aylantiradi. Yosh avlodlarning



dunyoqarashini zarur bo'lgan tarzda shakllan-tirishga, ularni jasorat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi.

O'tmishdagi xalqlarning og'zaki ijodiyotiga, adabiyotiga, madaniyatiga taalluqli bo'lgan va xuddi Homerning "Iliada" dostoni kabi etuk va betak-ror badiiy asarlar chinakam manoda, nafaqat bir necha xalq, balki butun odamzodning qimmatbaho merosiga aylandi. Bu kabi asarlarning o'zbek tili-ga tarjimasini, tadqiqi, bugungi globallashuv jarayonida yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan ham badiiy adabiyot, ayniqsa, o'tmishdagi adabiy yodgorliklarni o'rganishning o'рни nihoyatda muhimdir.

Voqean, xorijiy tillar va chet ellarning adabiyotlarini puxta egallash xalqlararo do'stlik, hamkorlik rishtalarining yanada chuqurroq yoyilishi hamda keng tarqalishi uchun maqsadga muvofiq deb qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida takidlangan "ilmiy tadqiqot va innovasion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovasion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexa-nizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori sifat-dagi ilmiy va texnologik markazlar hamda texnoparklarni tashkil etish" hamda ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirishga, mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu maqolada zarur va muayyan tavsilotlar ko'rsatib berilgan.

Hozirgi paytda Respublikamizdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy sohadagi islohotlarni qatiyat bilan amalga oshirish jarayonida fan va texnika sohasining yuqori saviyali mutaxassislari oldiga qator vazifalar qo'yilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xorijiy tillarning nazariy asoslari tadqiqi hamda adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohasiga oid tadqiqotlar natijalarini uzluksiz ravishda chet tillar va chet el adabiyoti talimi amaliyotiga tatbiq qilish masalasi barchaning etibo-rida turibdi.

2021 yilning 26 Martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Manaviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori elon qilindi. Ushbu Qarorda "Manaviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi: jumladan, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va sanatning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida manaviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish; va unda b) ilmiy-tadqiqot yo'nalishida: manaviy-marifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va tasirchan



targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish; manaviy-marifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash; vazifalari ko'rsatib o'tildi.

Shu erda bir kuzatuvni aytib o'tish joiz, "Iliada" dostoni dunyoning qudratli va serfayz, ulug'vor lug'at boyligi bor tillariga tarjima qilingan. Tarjimon Qodir Mirmuhamedov tomonidan o'zbek tilidagi "Iliada" tarjimasini ham boshqa bir qator kuchli tillarda amalga oshirilgan tarjimalar qatori XX asrning oxirlarida paydo bo'lganligi kishini quvontiradi.

Homerga tegishli bo'lgan "Iliada" dostonining beshinchi qo'shig'ini mutoalaa qilar ekanmiz, qo'shiqdagi o'ziga xos so'zlarning manosi, kimga nisbatan aytilganligi, ichki bo'linishi kabi bazi jihatlarini tahlil qildik. Dostonda kelgan so'zlar, sifatlovlar bazida Olimp xudolariga tegishli bo'lsa, bazida malum va mashhur qahramonlarga, bazida esa ot-ulov va boshqalar narsalarga daxldor. Matnda bunday sifatlovlarning bir yoki ikki qismdan iborat bo'lgan so'z birikmalariga taqsimlanganligini ko'ramiz. Ikki qismli murakkab so'z-sifatlovlar o'z manosi binoan turli so'z turkumlari va so'z yasovchi bir necha xil qo'shimchalarning birikuvidan tarkib topganligining guvohi bo'ldik.

Quyida dostonning beshinchi qo'shig'ida kelgan so'z birikmalari, ikki qismdan iborat murakkab so'zlar va ularning ichki tarkibiy bo'linishiga diqqat qiling:

piri jang; sar cho'qqi, sar maqom, jon kushanda, bulutlar koshifi, beqazo qon.

metinbilak, qodirandoz, nobudkor, bedovsuvor, metintuyoq, badqahr, g'oratkor, g'oratgar, tangrigoh, sarmabuda, jangkor, tangrivash, metinbilak, muhoribkor, bandakush, qonxo'r, tangrimonand, kumushkamon, nizokash, chaqmoqotar, mahvkor, nayzaandoz, tangrinamo, nayzabardor, andukkor, serquvva, oqbilak, gulbadan, sohibqiron, serfuqaro, porloqko'z,

murakab so'zlarning ichki tarkibiy bo'linish:

ot + ot: kumushkamon, gulbadan, sohibqiron, zaytunband;

ot + fel: qonxo'r, tangrimonand, chaqmoqotar, nayzaandoz, tangrinamo, nayzabardor, bandakush;

sifat + ot: metinbilak, oqbilak, metintuyoq, porloqko'z, bedovsuvor, qodirandoz;

prefiks morfema (old qo'shimcha) + ot: badqahr, sarmabuda, serquvva, serfuqaro;

ot + (ort qo‘shimcha) postfiksial morfema: nizokash, mahvkor, anduhkor, tangrigoh, jangkor, tangrivash, muhoribkor;

fel + ort qo‘shimcha: g‘orator, g‘orator; nobudkor.

Ushbu beshinchi qo‘shiq tarjimasining tahlili orqali biz Homer “Iliada” dostonini o‘zbek tiliga tarjima qilgan Qodir Mirmuhamedovning agar tabir joiz bo‘lsa, bevosita ijodiy laboratoriyasiga kirib borganday bo‘lamiz. Bu erda tarjimon mahoratiga qoyil qolmasdan iloj yo‘q.

Homerning “Iliada” dostonidagi obrazlarga juda ko‘p epitetlar, sifatlovlar qo‘llanilgan. Ularni sinchiklab o‘rganib chiqish dostonni yanada yaqinroqdan tushunib olishda kitobxonga katta yordam beradi. Quyida etiboringizga havola etilayotgan epitetlar jadval ko‘rinishida taqsimlab chiqilgan.

Ushbu jadvalda aniq ko‘rinib turgan narsalarni agar so‘z bilan bayon etsak, quyidagicha holatni kuzatamiz: Masalan, Zevsga nisbatan, manosiga ko‘ra 7 turdagi 10 xil epitet ishlatilgan. Epitetlar Zevsni buzruk padar sifatida baholab, uni chaqmoqdor, deb tasvirlab turibdi. Doston muallifi Homer uning bulutquvar, bulutbon ekanligini takidlasa, unga berilayotgan emosional va lirik munosabatlarda u qudratli, samo ila er sultoni deb etirof etilayotir. Ayni paytda unga yana toshbag‘ir degan sifatlov ham berilmoqda. Qiyosan bunday olib qaraganda har bir obrazga berilayotgan qator-qator epitetlar, shu obrazning portretini turli shtrixlar bilan tobora to‘ldirib, aniqlik kiritib borayotirki, ko‘z o‘ngimizda Zevs o‘zining butun borlig‘i bilan namoyon bo‘layotir.

Malumki, o‘zbek tilida katta hajmda arab va fors tillaridan tarixan uzoq vaqt davomida kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning qatlamlari mavjud. Ushbu o‘zlashma so‘zlar tarjima jarayonida etarli darajada qo‘llanilgan. Bundan tashqari, malum grammatik uslub va ananalardan foydalanib, ko‘plab yangi so‘zlar tuzilgan. Ushbu yangi so‘zlar “Iliada” tarjimasining yanada ko‘rkam, salmoqdor, salobatli va kamchilik-nuqsonlardan xoli bo‘lishi uchun xizmat qilgan.

“Iliada”ning o‘zbek tiliga qilingan tarjimasida qo‘llanilgan yangi so‘zlar quyidagilardir:

metinbilak, qodirandoz, bedovsuvor, nobudkor, metintuyoq, badqahr, g‘orator, tangrigoh, jangkor, tangrivash, muhoribkor, sarcho‘qqi, tangrimonand, kumushkamon, nizokash, mahvkor, nayzaandoz, bandakush, sarmabuda, beqazo, anduhkor, serquvva, chaqmoqdor, serfuqaro, porloqko‘z, ofatkash, jonkushanda, sartangri, chaqmoqsevar, bulutquvar, zilzilakor, xushtafakkur, ofatangiz, sohibtafakkur, serjurat, serhayon, zindaroq, kamhayon, mistuyoqli, sertahdid, ajalkash, sohibquvva, adovatkash, zaytunband, sarmalika, sertalotum, sarpadar,



yashinmonand, chustpoy, jangsiragan, otashona, mabudazod, qobonmonand, poyzirh, alangavash, tangrisiymo, tangrichehra, chaqmoqkor, murdakash, serfojia, xushniyat, kumushoyoq, hukmiravon, chaqmoqdor, mo'jizavash, falokatlash, zarangtuyoq, kumushchaqmoq, yuksakparvoz, misyanoq, sohibchangel, momiqbadan, mabudvash;

Albatta, yangi so'zlar o'z-o'zidan emas, balki tarjima jarayonidagi ichki talab va ehtiyoj taqozosiga ko'ra yuzaga kelgan. "Iliada" dostonidan olingan yangi so'zlar o'z ichki bo'linishiga binoan qanday qismlardan tashkil topgan-ligini quyidagi taqsimotda ko'rib o'tish mumkin:

ot+ot: sohibtafakkur, sohibquvva, zaytunband, mabudazod, tangrisiymo, tangrichehra, chaqmoqkor, sohibchangel; kumushkamon, kumushoyoq, kumushchaqmoq, misyanoq,

ot+fel: tangrimonand, nayzaandoz, bandakush, andukkor, jonkushanda, chaqmoqsevar, bulutquvar, ofatangiz, yashinmonand, jangsiragan, otashona, qobonmonand, zilzilakor, qodirandoz;

ot+sifat: hukmiravon;

sifat+ot: metinbilak, metintuyoq, zarangtuyoq, badqahr, porloqko'z, xushtafakkur, mistuyoqli, xushniyat, momiqbadan;

ot+postfiks (ort qo'shimcha): nobudkor, g'orator, tangrigoh, jangkor, tangrivash, muhoribkor, nizokash, mahvkor, chaqmoqdor, ofatkash, zindaroq, ajalkash, adovatkash, alangavash, murdakash, falokatlash, mo'jizavash, mabudvash;

prefiks (old qo'shimcha)+ot: bedovsuvor, sarcho'qqi, sarmabuda, beqazo, serquvva, serfuqaro, sartangri, serjurat, serhayon, kamhayon, sertalotum, sarmalika, sarpadar, serfojia;

So'zlarning ichki bo'linishi asosida keltirilayotgan misollar o'zbek tilinig ichki imkoniyatlarini ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek adabiy tili o'z lug'at tarkibiga ko'ra juda boy. Bu imkoniyatlar o'zbek davlatining jahon hamjamiyatiga qo'shib, globalizasiya jarayoni kuchayib borgan sayin tobora kengayib bormoqda.

Quyidagi jadvalda yangi so'zlarning yasaliush usullari, unda qatna-shayotgan so'z turkimlariga misollar keltirilgan.

Ushbu jadvaldan so'ng Homer "Iliada" dostonining o'zbek tilidagi tarjimasida duch kelayotganingiz yangi so'zlarning asl kelib chiqishi qaysi tilga mansubligini ayrim manbalarga suyang'an holda ko'rsatishga harakat qildik.



Asosi forsha-tojikcha soʻzlar: bandakush, nobudkor, nayzaandoz, jangkor, anduhkor, zindaroq, sarpadar, chustpoy, jangsiragan, otashona, poyzirh, murdakash, janggoh, jonkushanda;

Asosi arabcha soʻzlar: badqahr, ofatkash, ofatangiz, muhoribkor, nizokash, mahvkor, beqazo, serfuqaro, zilzilakor, xushtafakkur, sohibtafakkur, serjurat, sertahdid, ajalkash, adovatkash, zaytunband, sarmalika, sarmabuda, serfojia;

Asosi arabcha-forsha soʻzlar: gʻoratkor, qodirandoz, sohibchangel, serquvva, sohibquvva, hukmiravon, moʻjizavash, mabudazod, mabudvash;

Asosi oʻzbekcha soʻzlar: bedovsuvor, tangrigoh, metinbilak, metintuyoq, tangrivash, sarchoʻqqi, tangrimonand, kumushkamon, chaqmoqdor, porloqkoʻz, sartangri, chaqmoqsevar, bulutquvar, serhayon, kamhayon, mistuyoqli, qobonmonand, sertalotum, tangrisiymo, tangrichehra, chaqmoqkor, kumushoyoq, zarangtuyoq, kumushchaqmoq, yuksakparvoz, misyanoq, momiqbadan, yashinmonand, falokatlash, xushniyat;

Kuzatishlardan soʻng “Iliada” dostonining tarjimasini jarayonida koʻplab yangi soʻzlar paydo boʻlganligini, ular avvaldan tayyor boʻlgan va tan olingan qoliplar yordamida yuzaga kelganligini va bu kabi tajribalar juda mahsuldor va foydadan xoli boʻlmaganligini, shuningdek bunday yangiliklar dostonning oʻzbek tilidagi tarjimasini yanada sifatliroq va muvaffaqiyatli tarzda tarjima etilishi uchun va bundan tashqari, dostonning asl va boshqa tan olingan tarjimalaridagi koʻplab adabiy-badiiy xususiyatlarining oʻzbek tiliga qilingan tarjimasida ham saqlab qolinganligini bildik.

Oʻzbek adabiyotining xalqaro aloqalari koʻp vektorli keng aloqalar sifatida belgilanishi zarur. Chunonchi, Xalqaro turk akademiyasining etirofini olgan taniqli tatar olimi Fatih Ibrahimovich Urmanche tomonidan Turk qahramonlik eposining yozib olinganligi ilmiy jamoatchilik oʻrtasida juda katta hodisa sifatida tan olindi. Ushbu kitobning oxirida juda toʻliq hajmdagi bibliografik material toʻplangan. Unda keltirilgan turli turkiy xalqlar qadimiy ogʻzaki ijodining tadqiq etilganligi bilan bogʻliq mavjud adabiyotlar roʻyxatidan tashqari, qator turkiy xalqlar eposlari toʻgʻrisida ham malumotlar berilgan. Jumladan: oʻzbek , qozoq , qirgʻiz , yoqut , boshqirt , oltoy xalqlari , oʻgʻiz , qoraqalpoq , turk , tatar , noʻgʻay , singari xalqlarning mifologiyasi, qahramonlik eposlari toʻgʻrisidagi malumotlar, shuningdek, edigey , oyrot , even , rus , buryat , tuva , turkman , hakas , checheningush , qalmaq xalqlarining eposlari haqida, ular toʻgʻrisida yozilgan kitoblar haqida toʻliq xabarlar keltirilgan.

Bir soʻz bilan aytganda xalq ogʻzaki ijodi durdonalarini oʻrganish xalqlar oʻrtasida azaldan ardoqlanib kelgan chin umuminsoniy xislatlarni munosib tarzda baholashdir. Chunki chinakam xalq eposi nafaqat dovyuraklik vatanparvarlik gʻoyalarinigina emas, haqiqiy doʻstlik va birodarlik gʻoyalarini ham, tenglik va ozodlik gʻoyalarini ham birday ulugʻlaydi, koʻklarga koʻtaradi. Shuning uchun ham xalq eposlari doimo oʻzining munosib bahosini olishga qodir.

Bugungi kunda Homerning “Iliada” dostoni oʻzbek adabiyotining ham munosib, umriboqiy asrlaridan biri boʻlib qoldi. Vatanparvarlik, jasorat, botirlik kabi gʻoyalarni ulugʻlagan bu doston keng kitobxonlar ommasining, yoshlarning ham qalbi, ongi va shuuriga singdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гомер. *Илиада* / Пер. с древнегреческого Н. И. Гнедича. — М.: Эксмо, 2010.
2. Мирмухамедов К. *Iliada* (Tarjima va tahlil). — Ташкент: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 1995.
1. Винокуров В. *Поэтика Гомера и её влияние на европейскую* Нуриддин Очилович Юсупов, [Антик давр юнон адабиёти ва Ҳомер ижоди тўғрисида Ҳеорг Фридрих Ҳегелнинг фикрлари](#), ООО «Open science»,
2. Rustamov Alisher Abduhakimovich 2023/6 International Journal of Word Art ISSN 2181-9297 .6.2 147-150 Doi Journal 10.26739/2181-9297.
3. Rustamov Alisher Abduhakimovich Guidelines and Resources For Teaching Foreign Languages in UpperLevel Courses Based on Real-World Experience. JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS, ISSN: 2720-6882. <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr>.
4. [ROLE OF INDUSTRIAL PRODUCTION IN ENSURING ECONOMIC SECURITY AND DEVELOPING ENTREPRENEURSHIP IN REGIONS](#) M Olimov, A Rustamov. Economics and Innovative Technologies.
5. Ilham MAMASOLIYEV. [GAZETA MATNLARIDA QOʻLLANILADIGAN OʻZLASHMALARNING SOʻZ YASALISHIDAGI DERIVATSION VAZIFALAR](#). «ACTA NUUZ».
6. Ilham MAMASOLIYEV. Новые слова и сочетания в русском языке в период распространения коронавирусной инфекции (на материале средств массовой информации). Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz ООО Tadqiqot город Ташкент.



7. MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O'G'LI, ЎЗБЕК ТИЛИДА РАВИШ/СИФАТ ТИПИДАГИ ЛЕКСЕМАЛАРДА МАЗМУНИЙ СИНКРЕТИЗМ

TO Muydinovich - Philological research: language, literature ..., 2024 - journaltersu.uz

8. Mardiyev Begali Xudoyqul o'g'li, IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARDA IZHORLI QURILMANING O'RNI, SamDU Urgut filiali maktabgacha ta'lim va pedagogika kafedراسи mudiri, dotsent).

9. MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O'G'LI, ALISHER NAVOIYING «HAYRATUL-ABROR» DOSTONIGA ISHLANGAN «HAMMOMDAGI UCHRASHUV» MINIATYURASIGA SHARH VA NAVOIY.

10. IT Babakulov, Derivative Meanings in Russian and Uzbek Languages as Universal Conceptual Concepts.

11. ИТ БАБАКУЛОВ, Словообразовательные особенности русского и узбекского языков в аспекте гендерной асимметрии.

12. Games in teaching foreign languages and methods of conducting at the initial stage in secondary school NO Yusupov, NO Yusupova, MM Eshmatov Science and Education 2 (Special Issue 2), 185-189, 2021

13. Антик давр юнон адабиёти ва Ҳомер ижоди тўғрисида ҲеорҒ Фридрих Ҳегелнинг фикрлари NO Юсупов Science and Education 2 (Special Issue 2), 190-196, 2021

14. MODERN INFORMATIONAL AND PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR STUDENTS IN TEACHING ENGLISH NO Юсупов Актуальные научные исследования в современном мире, 266-270, 2020